

XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING BA'ZI XUSUSIYATLARI

Abdusattorov Abdujalil Abduvali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti

Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasи o‘qituvchisi

abdisattorov@pf.fdu.uz

A R T I C L E I N F O .

Kalit so‘zlar: dramatizm, antiromantizm, emotsiyonal-pozitiv, submadaniyat, regional, romantizm, simvolizm, impressionism, folklorizm, neoklassitsizm, neobarokko, urbanizm, fovizm, faktura, tembr, dinamika, artikulyatsiya, agogika, ladogarmonik, raskrepogsat, garmoniya, polifoniya.

Annotatsiya

Ushbu maqola musiqa san‘at va uning tadrijiy bosqichlari haqida so‘z yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

XX asr musiqa san‘ati rivojida tubdan burilish yasadi. Uning obyektiv sabablari sifatida tarixiy hodisalar sabab bo‘ldi. Jumladan, jahon urushi va dunyoning boshqa xududlarida inqiloblarning yuzaga kelishi, odamlarning o‘ta ashaddiy vaxshiylashi, insoniylikka xos bo‘lmagan qonli va fojeali onlari odamlarni yovvoyilik, vaxshiylik, tubanlikning tubiga uloqtirdi. Buning oqibatida daxshatdan uyg‘ongan odam insoniyatni ulug‘lovchi, insonni qadrlashni, kelajakka ishonchni uyg‘otuvchi, qalb (ruh) va fikrning yuksalishiga davat etuvchi his tuyg‘ularni qo‘zg‘atuvchi musiqa san‘atiga murojaat etishga olib keldi. Bu davr dialektik qarama–qarshiliklar, ya’ni yuksaklik va tubanlik, qahr va g‘azab, mehr va shavqat, o‘tmish va kelajak musiqa san‘atida yangi ko‘rinishning asosi bo‘lib qoldi va unda bugungi kunning butun dramatizmini aks ettirdi. Avvalambor, musiqa turli xil qatlamlarga bo‘linib ketdi jiddiy akademik-zamonni imkonli boricha rost va aniq aks ettirishga harakat qiluvchi; ko‘ngil ochar (yengil submadaniyat). Ular orasida esa professionalizmning regional chetlanishlari bo‘lib, ular

jiddiy janrlardagi emotsiyal-pozitiv boshlanishdagi bo'shliqni to'ldirib turardi. Bilamizki ko'pgina izlanishlarning yangi yo'nalishlari antiromantizm bayrog'i ostida olib borilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, jiddiy akademik musiqaga bo'lgan qiziqish kamayib bormoqda. Ko'ngilochar san'at ommaviy qiziqishni, unga nisbatan kamroq qiziqishni esa ijodning regional ko'rinishlari uyg'otyapti. Tinglovchi ongida jiddiy zamonaviy kompozitorlarning novatorlik izlanishlari o'tgan asr akademik ijodiyoti oldida orqaga tinglandi. Tinglovchining estetik talablari bu izlanishlar bilan mos tushmadi va natijada krizis vaziyat yuzaga keldi. Agar asrning birinchi yarmida omma istaklaridan ozod bo'lgan mustaqillik kayfiyati ustun bo'lib, o'zlarining xaq ekanliklariga bo'lgan ishonch kelajakda tan olinishiga bo'lgan umidlar bilan sug'orilgandi. Asrning ikkinchi yarmida esa boshqa tamoyillar va shu bilan bir vaqtida mahorat va mazmundorlik darajasini pasaytirmagan holda tinglovchiga tomon yo'lni izlashda aks etdi.

XX asr san'atining o'ziga xos tononi shundaki, unda bir butun usulning asosi yo'q. Ijod qiluvchi bir usulga asoslanib o'z usuli tamoyillarini ko'ra olmaydi. Shuning uchun musiqada novotorlik yozuvining atonallik, atematizm, romantiklik kabi tavsiflari juda o'zoq saqlanib keldi. Buning natijasida musiqiy til eski tizimini yangilashga bo'lgan xarakat ko'rinnadi. Professional yozuvdagi bunday burilish turidir. Bu falsafa va musiqiy estetikada olam va san'atni bilishning mumtoz nazariyasi o'z imkoniyatlarini tugatdi. Romantizm mumtoz logika asarlari bilan-ki o'zilmagan holda uni yangilab, uning imkoniyatlarini ichidan kengaytirdi. Ammo XIX asrning oxiriga kelib, bu qudratli konsepsiya yangi konsepsiyaga yo'l bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Buyuk burilish davri albatta yangi san'atning ko'p sonli deklaratsiyalarini keltirib chiqardi. Ular o'tmis bilan aloqalarini o'rganliklarini e'tirof etdilar. An'ana kanonga bo'lgan munosabat teskari tomonga o'zgarib, birlamchi bo'lib eksperiment oldinga chiqadi. Bu jarayon XIX asrning oxirgi yillarida boshlanib: simvolizm, impressionizm — ular yangi san'atning boshlovchilari edi. Xuddi shu vaqtida "san'atning ichini bo'shatishdan bosh tortish", "badiiy matndan muallifning intim muammolarini olib tashlash" kabi shiorlar oldinga chiqdi. Badiiy fikr vositasida xissiyotlarni tavsiflashning hayoliy yoki epik ko'rinishlariga murojaat qiladi. Ana shunday zaminda ham folklorizm, ham neoklassitsizmning yo'nalishlari bo'lgan - neobarokko, afsona ijodiyoti, urbanizm, fovizm paydo bo'ladi. Musiqiy yozuvdagi burilish musiqiy vositalar ifoda bo'yoqlarini boshqatdan ko'rib chiqish yo'lidan borardi. Agar mumtoz matn asosini kuy va garmoniya tashkil etgan bo'lsa, yangi musiqiy tilda faktura, tembr, dinamika, artikulyatsiya va agogikaning roli kuchaydi. Melos bilan bog'liq bo'limgan ritmning mustaqil funksiyasi o'sib boradi. Bunday ko'rib chiqish ladogarmomonik yangiliklar asosida bajarilib, avvalambor, dissonansni, bo'shatish (raskrepogsat), garmonianing ladlar tovushqatori 12 tonligini major - minorli markazlashgan funksionallikdan voz kechishdan boshlandi. Mumtoz garmonianing qudratli tashkiliy imkoniyatlari boshqa tashkiliy faktorlarga joy bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Bunga yozuv texnikalarini misol qilish mumkin. Bu texnikalarning turli xil bo'lishlariga qaramay, ularning kesishish nuqtalari va tekis qutlashish tizimlari sezilib turadi. Bu texnikalarning hammasida intonatsion - melodik boshlanish rolining kamayishini ta'kidlash lozim. Uning o'rniga fonizm yoki ratsional tashkilotchilik rolining o'sishi bilan to'ldirildi. Vaziyatning qiziqligi shundaki, ma'lum bir texnika tarafdarlari individuallashtirishga intilishib, hamma individual yagonalikka erisha olmadilar. Bu musiqani tashkil qilish intonatsion qatlagini ikkinchi darajaga o'tkazishdan kelib chiqadi. Butun keyingi musiqa tarixi bu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini izlashga, musiqiy ifodaviylik bo'yoqlarini kengaytirishga olib keldi.

Turli xil davrlarda janr musiqa ma'nosini tushunish uchun yo'boshlovchi bo'lib,

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch



tinglanayotgan asarni tug‘ri tushunishni ta’minlagan. Burilish, klassitsizm qonuniyatlarining inqirozi davrida muallif tomonidan oldiga qo‘yan vazifalarini konkretlashtirishi ayniqsa, qadrli dir. XX asr musiqiy asarlarida janrlarning o‘zaro aloqasi ahamiyatli ravishda kengaydi. Fikrlashning klassik - romantik tizimidan voz kechish bu yo‘nalishlarning janrlı konsepsiyasidan ham voz kechishga olib keldi. Janr hosil bo‘lishda aralash janr asosiy tamoyilga aylandi. Bunda turli janrlarning aralashishi har hil bo‘lib, ularning hosil bo‘lishi bir - biridan ancha farq qilardi. Konkret janr belgilaridan voz kechish sezilarli bo‘lib, ularni janrlı neytral nomlanishlar bilan almashtirildi, Masalan: “musiqa”ga qo‘shimcha to‘ldirishlar va aniqlashlar kiritildi – “aza uchun musiqa”. Xuddi shu kabi improvizatsiya, kadensiya tushunchalarini ham keltirish mumkin. Ularning hammasi dasturli bo‘lmagan holda asarning eksperimentli xarakterini ta’kidlaydi. Bu yerda eksperiment ijrochilar guruhiga, ma’lum bir usulga yangi nazar bilan qarashda, birlashtirib bo‘lmaydigan narsalarni birlashtirishda namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda bunday eksperimentlar o‘tkazish tanlangan janrni usullashtirishda yoki mayjud janr bilan munozarada namoyon bo‘ladi. Bu xususda L.Polovkinding ijodi qiziqarlidir. Konsert-simfoniya, simfoniya-maqom, violonchel, bayan va kamer orkestr uchun partita, simfonik orkestr, 4 ta elektrogitar va djaz - grupper uchun konsert kabi janrlar aralashmalari - odatda turli g‘oyalari, madaniyatning turli xil qatlamlarining to‘qnashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Ba’zi bir hollarda ular janrlar sintezini yaratishadi: simfoniya-memorial, aralashma (gibrild) va bu garmonik natijaga olib keladi.

XIX asrda janrlilik asar matnida o‘qish (sitirovaniye) yoki timsolni umumlashtirish sifatida ishlatalgan bo‘lsa XX asrga kelib u yangi vazifalarini o‘zlashtirdi - janrni soddalashtirish (utrirovaniye), grotesk va ma’noni butunlay teskari ravishda o‘zgartirish. Tarixiy xotira janri ham paydo bo‘lib, ko‘p hollarda u ko‘p qatlamli, janrning uzoq tarixiy o‘tmishini ochib beruvchi ko‘rinishida edi. Butun asr davomida uslub muammolarining roli o‘sib bordi. Mumtoz usulning universalligidan voz kechib, kompozitorlar o‘z tajribalarining organikasi kabi masalaga to‘qnash keldilar borada usul kategoriyasining ahamiyati kuchayadi. Ya’ni ish tamoyilini tanlash, kasbning ma’lum qonunlari bo‘yicha musiqa yaratish haqida gap borayapti. Bu borada birinchilardan bo‘lib yorqin iste’dod egasi I.Stravinskiy eslash kerak. Stravinskiy har doim o‘z kasbining ustasi bo‘lishni yoqlab, his-tuyg‘ularni keyinroqqa surardi. Bu o‘z badiiy maqsadlari bilan farqlanuvchi ko‘pgina kompozitorlarning ish uslubi edi; Prokofyev, Shyonberg, Vebern, Pulenk va boshqalar. Ana shunday asosda usullar plyuralizmi va begona, ko‘p hollarda juda teskari usullar modellari bilan ishslash yuzaga keldi. Bunda albatta tarixiy dialog: o‘zimniki - begonaliki bo‘lishi lozim edi. Bundan tashqari bunday usullashtirish (stilizatsiya)ga til va janr ham qo‘shilardi, XX asr ikkinchi yarmida juda keng tarqalgan musiqiy faoliyatning ko‘pusulligi (polististik) rivojlandi. Usul plyuralizmini madaniy hayotdan bir asarning matniga ko‘chirish. Matnda usullar to‘qnashuvi aniq bir dramaturgik g‘oya bor vaqt dagina bo‘lishi mumkin, aks holda bu bema’no eklektikaga olib keladi. Ko‘p usullilik odatda «usul yordamida umumlashtirish»ning timsoliy vositasiga aylanadi. Ko‘p usullilik musiqiy asar mazmuni haqidagi tasavvurlarni o‘zgartiradi. Musiqa uning tarixi, musiqiylikning qadr-qimmati va musiqiylikning turli xil ko‘rinishlarining bema’noligi mazmunga baholash va kul’turologik ko‘rinish beradi. Usul bilan ishslashning navbatdagi bosqichi - qarama-qarshilik emas, balki turli xil janrlarni qo‘shishdan iboratdir. Ular aniq bo‘lmagan hissiyotlarni uyg‘otadi, Simvolikani matnga kiritib, unga ma’noli hajm ko‘rinishini beradi (misol Shostakovich ijodining oxirgi yillari, Ligeti ijodi). XX asr - bu Yevropacha bo‘lmagan milliy madaniyatlar kompozitorlik ijod yo‘llarining boshlanish asridir. Milliy yozuv me’yorlarini ishlab chiqishda yangi milliy kompozitorlik maktablari o‘z badiiy tajribalarigagina emas,

balki boshqa xalqlarning kompozitsiya san'ati sohasida erishgan yutuqlariga ham tayanadilar. Bunda ular o'z ruhlari va milliy musiqiy madaniyatlari intonatsion ruhiga yaqin bo'lganlarini tanlab oladilar. Bunday maktablarning har biri kompozitsiya tili me'yorlarini, garmoniya, polifoniya qonunlarini, ularning milliy musiqaning o'ziga xosligiga ko'ra modifikatsiyalarini o'zlashtirishdan tortib, to turli janrlarda yozilgan tulaqonli va rivojlangan asarlarni yaratishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadilar. Bu yaratilgan asarlarda milliy, o'ziga xos mavzuiylik o'z tabiatiga hos bo'lgan rivojlanishga ega bo'lib, u mantiqli va mazmunan ishonarli kompozitsiya ko'rinishini olgandir. Va nixoyat, to'plangan tajriba asosida milliy usulning individual ko'rinishlari shakllanadi. Bu bosqichlarning hammasida mustaqil madaniyatlarning ixtiyoriy shakldagi dialoglari bo'lishi mumkin: ularning qo'shilishi, sintezidan to usullarning dialogi yoki polilogigacha va janrdan chetga chiqmagan holdan to oldiga quyilgan maqsad ta'sirida umumlashtirish va transformatsiyagacha. Milliy madaniyatdan chetga chiqqanda ham Yevropacha bo'limgan tajribadan foydalanish chegaralanmagandir. Xususan bu hol yevropa musiqasini milliy koloritni boshqatdan tashkil etmagan holda musiqiy til bo'yoqlarining kengayishi va yangilanishiga olib keldi (O.Messian, djazning garmoniyaga ta'siri, G.Kanchellining meditativ simfonizmi).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qaxxarov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008. 314 b.
2. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. Toshkent. Yangi avlod asri. 2009. 304 b.
3. Mirzayeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.
4. Omonullayeva D. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007. 110 b.
5. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. www.Completevocalinstitute.com
6. American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
7. Abduvali o'g'li, A. A. (2022). O 'QUVCHI YOSHLARNI MUSIQIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR.
8. Abdusattorov, A. A. O. G. L., Yusupjonova, D. O. Q., & Anvarova, B. D. Q. (2022). O 'QUVCHI YOSHLARNI MUSIQIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 376-378.
9. Abdusattorov, A. (2022). DIMITRIY DIMITRIYEVICH SHOSTAKOVICH IJODIDA POLIFONIYA. *Science and innovation*, 1(B6), 430-432.
10. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
11. Rakhmonov, U., Suleymanova, D., Alijon, E., Omadjon, R., & Abdujalil, A. (2021). The Role Of Organizing Music Clubs In Social Life. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
12. Mamaziyaev, X. (2022). SONGS FOR THE WEDDING CEREMONY (ANALYSIS OF WEDDING RITUAL SONGS). *Science and Innovation*, 1(6), 190-199.

13. Karimov, A., Mamaziyaev, K., Kholikova, G., Ergashev, A., & Kirgizov, I. (2021). Symbol Of Instruments In State Performance Served In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
14. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet “Tomaris” in the culture of Uzbek ballet plase and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
15. Achildiyeva M. Ikromova F. “O’zbek musiqa san’atida maqomning o’rni” Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conferense . London 2020 90-93 bet
16. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. “Uyghur Folk Singing Genre” Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
17. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
18. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
19. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4) 460-463
20. Ikromova F. O’ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO’LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
21. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO’LLARINING QO’LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet
22. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O’ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet
23. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
24. Hojimamatov Azimjon CHANG CHOLG’USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriyental Renaissancye: Innovative, yeducational, natural and social sciyencies VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
25. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO’LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
26. Xojimamatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO’LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and

- social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.
27. Ачилдиева Мұяссархон, Атқиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЬАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.
28. M.Achildieva, N.Butabayeva, M Nasirova A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6 bet
29. Muyassarxon Achildiyeva, Ikromova Farangis Yigitali qizi International scientific-practical conference Vol. 14 No. 1 (2023): "THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"